

**CHET TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING
O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10710285>

Kimsanboyeva Mohinur, *ADCHTI talabasi*

Ilmiy rahbar J.Egamberdiyev, ADCHTI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarni oshirish uchun Yangi O'zbekistonda chet tilini o'rganishning yangicha, zamonaviy, innovatsion loyihalari batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion g'oyalar, raqamli texnologiya, Ibrat Farzandlari mobil ilovasi, kommunikativ-axborot vositalari.*

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Chet tillarini o'rganishda innovatsion axborot texnologiyalarining o'rni juda katta bo'lib, bu texnologiyalar o'rganish jarayonini osonlashtirib uning samaradorligini oshiradi. Har bir fanni yangicha zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, o'quvchi talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorida ta'limga alohida e'tibor qarata "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak poydevori bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey kollejva oily o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga yalanishi lozim" degan so'zlari, nafaqat talaba yoshlarda balki barcha ta'lim ixlosmandalrida o'zgacha bir ruhiyat uyg'otdi. Bundan tashqari, chet tillarini o'qitishni va o'rganishni rivojlantirishga va yangi bir pog'onaga olib chiqishga bo'lgan e'tibor va qiziqishni yanada kuchaytirdi. Chet tili darslarini o'qitish jarayonida ilg'or texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Bundan tashqari bunga jadallik bilan kirishgan talaba va yoshlar tomonidan bir qancha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda chet tilini o'rganish uchun yaratilgan eng samarali loyihalardan biri "Ibrat Farzandlari" deya nomlangan til o'rgatish loyihasi doirasida mobil ilova ishlab chiqildi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan "Ibrat Farzandlari" loyihasi xorijiy tillarni bepul, sodda va kreativ usulda o'rgatishni maqsad qilgan. Loyiha doirasida professional ustozlar tomonidan 13 ta til bo'yicha 22 turdagi tizimli va noldan boshlangan darslar majmuasi ishlab chiqilmoqda. Ilovaning keyingi yangilanishlarida sun'iy intellect funksiyasi ham qo'shilishi kutilmoqda. Bu ilovada har bir foydalanuvchi bilan individual yondashuvda ishlash imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda

bunday loyihalarning soni va imkoniyatlari oshib bormoqda va bu til o'rganuvchilarga yanada yengillik yaratib kelmoqda.

Yangi O'zbekiston yangi innovatsion g'oyalar bilan yoshlarga xorijiy tillarni eng samarali usullarda o'rganishiga keng imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Shu asnoda ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun bir qancha bepul innovatsion loyihalar ishlab chiqildi va ommaga taqdim etildi. Bunda esa raqamli axborot texnologiyalari muhim va katta rol o'ynaydi.